

BOSHLANG'ICH SINFLARDA AYRIM TAQLID SO'Z TURKUMIGA OID SO'ZLAR BILAN ISHLASH

Ergashova Mehriniso Husniddin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8227574>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatish jarayonida o'rgatiladigan taqlid so'z turkumiga oid ayrim so'zlar ustida ishlash metodikasi bo'yicha fikr va qarashlar o'z ifodasini topgan. Ushbu maqola nazariy tushuncha va tavsiflar berish bilan birgalikda ayrim didaktik o'yinlarning amalda qo'llanish yo'l-yo'riqlarini o'zida aks ettirganligi bilan dolzarbdir.

Kalit so'zlar: dastur, taqlid, vosita, topshiriq, ovoz, usul, mustaqil, atrof-muhit, amaliy ko'rsatmalar.

WORKING WITH WORDS RELATED TO SOME IMITATION VOCABULARY IN ELEMENTARY GRADES

Abstract: In this article, opinions and views on the methodology of working on some words related to the imitation vocabulary taught in the process of teaching vocabulary to elementary school students are expressed. This article is relevant as it reflects the guidelines for the practical use of some didactic games along with providing theoretical concepts and descriptions.

Keywords: program, simulation, tool, task, voice, method, independent, environment, practical instructions.

РАБОТА СО СЛОВАМИ, ОТНОСЯЩИМИСЯ К ИМИТАЦИОННОЙ ЛЕКСИКЕ В МЛАДШИХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье высказываются мнения и взгляды на методику работы над некоторыми словами, относящимися к имитативной лексике, преподаваемой в процессе обучения лексике учащихся начальной школы. Эта статья актуальна, так как в ней отражены рекомендации по практическому использованию некоторых дидактических игр, а также предоставлены теоретические концепции и описания.

Ключевые слова: программа, имитационное моделирование, инструмент, задача, голос, метод, самостоятельный, среда, практические инструкции.

KIRISH

So'z turkumlarini o'rganish izchil, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u pedagogdan yuksak mahoratni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rgatish jarayonida tilshunoslikdagi barcha so'z turkumlari qamrab olinmaydi, ammo ba'zi tushuntirish va tushunish jarayoni murakkab bo'lgan so'z turkumlarining (masalan, olmosh yoki bog'lovchi so'z turkumlarining ayrim men, sen, u, chunki, shuning uchun kabi so'zlari) ayrim so'zlari o'rgatiladi. Ushbu ilmiy ish davomida shunday so'z turkumlariga yorqin namunalarni fikr, isbot va dalillar vositasida ko'rib chiqamiz.

Taqlid so'zlar so'z turkumlarining uchinchi guruhi, ya'ni alohida olingan so'z turkumlariga kiradi. Bizga ma'lumki, tilshunoslikda 12 ta so'z turkumi mavjud bo'lib, ular quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Mustaqil so'z turkumi;
2. Yordamchi so'z turkumi;
3. Alohida olingan yoki oraliqdagi so'zlar.

ASOSIY QISM

Taqlid soʻzlar ushbu yuqoridagi guruhlarning uchinchi turiga mansub hisoblanadi. Taqlid soʻzlar deb, atrofda jonli va jonsiz narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni ifodalagan soʻzlarga aytiladi. Ammo ushbu taʼrif boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlariga va tushunish jarayonlariga nisbatan biroz murakkab boʻlib, ularga quyidagi shaklda tushuncha bergan maʼqul deb oʻylaymiz:

Atrofdagi tovushlarni yozuvda ifodalash uchun ishlatiladigan barcha soʻzlarimiz taqlid soʻzlar deb ataladi. Ushbu taʼrif yuqorida keltirib oʻtilgan taʼrifga nisbatan tushunish sodda hisoblanadi. Oʻqituvchi taqlid soʻzlarni oʻquvchilarga ongli ravishda tushuntirishi uchun oddiy kundalik hayot va ularni oʻrab turgan atrof-muhitdagi jonli va jonsiz predmetlarning ovozlardan foydalanishi ijobiy samara beradi deb oʻylaymiz.

Respublika Taʼlim Markazi tomonidan xorij tajribalari bilan hamohang tarzda ishlab chiqilgan milliy dasturdagi ilmiy dalillar shuni koʻrsatadiki, taqlid soʻzlar haqidagi boshlangʻich tushunchalar oʻquvchilarda ikkinchi sinfdan boshlab shakllana boshlaydi. Shunga qaramasdan, ushbu soʻzlarning barcha xususiyat va mohiyatlariga chuqur toʻxtalib oʻtilmaydi. Masalan, ushbu soʻzlar soʻzlar soʻz turkumining alohida olingan soʻz turkumlari guruhiga kirishi kabi maʼlumotlar oʻquvchiga taqdim etilmaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ikkinchi sinfdan ona tili va oʻqish savodxonligi darsligining oʻninchisi boʻlimi “Bolalar qoʻshiqlari” boʻlimidagi birinchi mavzu vositasida alohida olingan soʻz turkumlarining bir turi bilan tanishadilar. Ushbu boʻlimda berilgan “Joʻjalarim” sheʼri fikrimizning yorqin isbotidir. Bu sheʼrda joʻjalarning tovushlariga taqlid qilingan soʻzlardan foydalanilgan: “chip-chip” soʻzi. Oʻquvchilarning ongidagi ilk tasavvur shu sheʼr orqali shakllana boshlaydi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari “Bolalar qoʻshiqlari” boʻlimi doirasida ham jonli narsalarning tovushiga taqlidini ham jonsiz narsalarning tovushiga taqlidni oʻrganadilar. Ammo holatga taqlid bundan mustasno.

Yuqorida keltirib oʻtilgan maʼlumotlarga parallel ravishda oʻquvchilar takror taqlid soʻzlar ishtirokida feʼlli birikmalar tuzishni oʻrganadilar. Fikrimizga ilmiy dalil sifatida quyidagi birikmalarni keltirib oʻtishimiz mumkin:

1. Vov-vov qilmoq-vovullamoq;
2. Miyov-miyov-miyovlamoq;
3. Vish-vish-vishillamoq.

Darslikning biz yuqorida taʼkidlab oʻtgan mavzuga oid boʻlimidagi sheʼrlar asosida mashqlar ishlanib, oʻquvchilar bilimlari musatahkamlanadi. “Ona chumchuq va bola chumchuq” sheʼridagi “chiriq-chiriq” soʻzi chumchuqning ovozigacha taqlid boʻlib, bolalarga kundalik hayotda ayrofdan eshitilgan chumchuqning ovozi aslida qanday soʻz ekanligi ongli ravishda tushuntiriladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ushbu jarayonga yetib kelgunga qadar ogʻzaki nutqda ishlatilgan yoki atrof-muhitdan eshitilgan borliqdagi jonli va jonsiz narsalarning ovozi haqida bilim, koʻnikma va malakalar shakllana boshlaydi. Bundan tashqari, ogʻzaki nutqda ishlatgan taqlid soʻzlarini yozma nutqda ham aks ettira oladilar.

Ikkinchi sinfdan oʻquvchilar jonli narsalarning ovozigacha taqlidni tashqari jonsiz predmetlarning ovozigacha taqlid soʻzlar haqida ham maʼlumotga ega boʻladilar. Mavzuga oid boʻlimdagi “Arra gʻiz-gʻiz” sheʼri fikrimizning yorqin isbotidir.

Oʻquvchilarning bilimlarini avtomatlashgan koʻnikma va malakaga aylantirishda pedagogga yaqindan yordam beradigan vositalar bu metodlar va didaktik oʻyinlardir. Taqlid soʻzlar haqidagi bilimlarni mustahkamlab olishda rasmlar bilan ishlash usuli yaxshi samara beradi. Masalan, oʻqituvchi atrofda istalgan predmetning rasmini koʻrsatib, uning ovozigacha taqlid

qilishlarini so‘rashi mumkin. Ushbu usul yordamida kichik yoshdagi, endigina o‘yin faoliyatidan yiroqlashgan bolaning darsga bo‘lgan ishtiyoqi oshadi. Va xorij tajribalari asosida ishlab chiqilgan milliy dasturga muvofiq ravishda fanlar integratsiyasi hosil bo‘ladi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab joizki, bu jarayonda tabiat qo‘yniga ekskursiya qilish yuqori darajada samara beradi. Chunki yon-atrofdagi jonli va jonli predmetlarni ko‘rib, ularning ovozini tahlil qilgan o‘quvchida ongli ravishda bilim shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, alohida olingan so‘z turkumlariga kiruvchi taqlid so‘zlarni o‘rganish bosqichida o‘quvchilarning lug‘at boyligi ortadi. Ko‘pincha amaliy ko‘rsatmalarga urg‘u berish shart bo‘lganligi bois bolalarda ishtiyoq o‘sadi, ruhiyat ko‘tariladi. Atrofdan eshitayotgan so‘zlari qanday so‘z turkumi ekanligini bilib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаева Қ. А., Биринчи синфда нутқ ўстириш. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1980. – 156 б.
2. Абдуллаева Қ. А., Раҳмонова С. Она тили дарслари (усулий қўл-ланма). – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1999. – 146 б.
3. Klaraxon Mavlonova, Shokir Tursun, Iroda Azimova, Sa’dullo Quronov uchinchi sinf ona tili darsligi.
4. Klaraxon Mavlonova, Shokir Tursun, Iroda Azimova, Sa’dullo Quronov
5. Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси – Бухоро, 1994. – 195 б.
6. Менглиев Б. Тил ва тараққиёт. – “Маърифат” газетаси, 2013 йил 30 октябрь сони, 8 – 9- б.
7. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1966. – 267б.
8. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1992. – 168 б.
9. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006. – 171 б.
10. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент.: «Университет», 2007. – 405б.
11. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент.: «Ўзбекистон», 1994.
12. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1980. – 232 б.
13. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1980. – 448 б.
14. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент.: «Фан», - 176б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006 – 680 б.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006 – 672 б.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006 – 688 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008 – 608 б.

19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008 – 592 б.
20. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1995 – 128 б.
21. Ғуломова А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1995. – 160 б.
22. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1975. – 225 б.
23. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент.: «Фан», 1977. – 168 б.
24. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент.: «Ўқитувчи», 1974. – 308 б.
25. Ahmedova N. Boshlang‘ich sinflarda nutq o‘stirish usullari. // Ta‘lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. «O‘zbek tili» doimiy anjumani beshinchi yig‘ilishi tezislari to‘plami (1999- yil 29-30 aprel) – Toshkent.: «Sharq», 1999. – 76-77b.
26. Zeboxon Ro‘zmetova, Shokir Tursun, Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Quronov. Она тили ва о‘қиб саводхонлиги. 1-синф учун дарслик.-Ташкент-2021. 61-б